

Prezident ta'lim muassasalari agentligi
“Yangi O‘zbekiston ta’limi: islohotlar yo‘lida muvaffaqiyatli hamkorlik”
xalqaro forumi
PRESS-RELIZ

Joriy yilning 24-25- noyabr kunlari Prezident ta'lim muassasalari agentligi tomonidan xalqaro hamkor tashkilotlar bilan birgalikda **“Yangi O‘zbekiston ta’limi: islohotlar yo‘lida muvaffaqiyatli hamkorlik”** xalqaro forumi tashkil etildi.

Mazkur forumdan ko‘zlangan maqsad:

- global ta'limni rivojlantirish,
- o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqish,
- o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yo‘lida dolzarb vazifa va masalalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotda birgalikda muhokama qilish,
- qo‘shma dasturlar asosida talabalarni o‘qitish xamda amaliyot o‘tash imkoniyatlarini yaratish,
- o‘qituvchilar malakasini oshirish,
- o‘quv va ilmiy adabiyotlar almashish,
- yangi hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun zamin yaratishdan iborat.

Forumdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

1. Tadbir ishtirokchilarining Yangi O‘zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi ortadi;
2. Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim tizimi haqida batafsil ma'lumotga ega bo‘ladilar: milliy islohot va zamonaviy sifatli ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy “lokomotivi”ga aylanish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar, maktablarning ijobiy tajribasi, kelajakda respublikadagi barcha umumta'lim maktablariga joriy etilishi zarur bo‘lgan tajribalar muhokama qilinadi.
3. Forum doirasida Massachusetts texnologiya instituti, Turkiya Ta'lim vazirligi, Notingham Trent universiteti, Portsmouth universiteti “TeamCoach International” bilan hamkorlik memorandumlari imzolanadi. Buning natijasi o‘laroq, Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatida hamkorlikning aniq yo‘nalishlari

belgilanadi, tajriba almashish jarayonida ta'lim sohasida mavjud muammolarga yechim topish hamda amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi baholanadi.

4. Tadbir ishtirokchilari "Yangi O'zbekiston" universiteti, uning faoliyat yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishadilar. Bu o'z o'rnida xorijiy va mahalliy ko'zga ko'ringan professor-olimlarni, malakali o'qituvchi va xodimlarni, shuningdek, xorijiy talabalarni universitetga jalb qilishga asos bo'ladi.

Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasining jahon maydonida ijobiy imidjini yaratishga hissa qo'shadi.

"Yangi O'zbekiston ta'limi: islohotlar yo'lida muvaffaqiyatli hamkorlik" forumi Toshkent shahridagi Xalqaro Anjumanlar zalida bo'lib o'tib, unda ta'lim sohasidagi xalqaro va mahalliy ekspertlar hamda davlat arboblari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'lik va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi Abdujabbor Abduvohidov, Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori Hilola Umarova, Massachusetts texnologiyalar instituti J-Well direktori Vijay MS Kumar, Myunxen texnika universiteti faxriy prezidenti Wolfgang Herman, UNESCOning ta'lim masalalari bo'yicha director o'rinbosari Stefania Jianini (videomurojaat), Cambridge Assessment xalqaro ta'lim tashkilotining ta'lim yo'nalishi bo'yicha Bosh maslahatchisi Stive King, Cambridge Assessment xalqaro tashkiloti Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi rahbari Megan Thomas va Times Higher Education Bosh tijorat direktori Nick Davis ishtirok etishdi.

Ma'lumot o'rnida, **Wolfgang Anton Herman** germaniyalik mashhur kimyogar olim bo'lib, u 2019 yildan buyon Myunxen Texnika Universitetining faxriy rektori hisoblanadi. Bunga qadar V. Herrmann Germaniyaning Regensburg va Frankfurta-na-Mayne universitetlarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, Wolfgang Herrmann bir vaqtning o'zida Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi "Yangi O'zbekiston" universitetining faxriy rektoridir.

Professor Herman noorganik va metallorganik kimyo sohasida tadqiqot olib boradi. Wolfgang Herman **800 dan ortiq** ilmiy maqolalar va **80 ga yaqin** patentlar muallifidir.

Herman ko'plab akademik jamiyatlar (Leopoldina, Acatech, Shvetsiya Qirollik muhandislik fanlari akademiyasi, Mayns adabiyot va fanlar akademiyasi) a'zosi va Germaniya va boshqa **mamlakatlardagi 13 ta universitetning faxriy doktori** unvoniga ega. U ISI (International Scientific Index) reytingiga ko'ra eng ko'p tilga olingan nemis kimyogarlardan biri sanaladi.

Vijay Kumar Massachusetts texnologiya instituti J-Well ijrochi direktori hisoblanadi. Janob Vijay dunyoning bir qancha nufuzli tashkilotlarida faoliyat olib borgan. Jumladan:

- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (**JSST**) da o'quv strategiyasi bo'yicha maslahatchisi;
- AQSHning Smitsonian institutida Raqamli kelajak loyihasi bo'yicha maslahatchisi;
- Hindiston Milliy bilimlar komissiyasining faxriy maslahatchisi;
- **UNESCO tashkilotida** ochiq ta'lim resurslari, texnologiyalar va siyosat strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha faoliyat olib borgan.

Stive King Cambridge Assessment tashkilotining ta'lim yo'nalishi bo'yicha Bosh maslahatchidir. 2018 yildan bugungi kunga qadar u O'zbekiston Respublikasi bilan **ta'lim sohasida hamkorlik** olib bormoqda.

Ma'lumki, Cambridge Assessment tashkiloti Prezident ta'lim muassasalari agentligining asosiy xorijiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Stive King 2020 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasining "**Xalq ta'limi fidoyisi**" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Tadbir doirasida quyidagi tadbirlar rejalashtirilgan:

1-kun

Birinchi kun – 24-noyabr kuni forumning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Shu kuni taqdimot yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Forum davomida yuqori martabali mehmonlar ishtirokida **davra suhbat**i tashkil etildi.

Unda, jumladan ***Global ta'limda mavjud muammolar va ularning yechimi: xorij tajribasi va integratsiya*** mavzusi, xususan

- Zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq ta'lim berishning asosiy omillari;
- Iqtidorli yoshlar uchun sifatli ta'lim sharoitlari yaratish;
- Global miqyosdagi ta'limiy yangiliklarni mahalliy sharoitda joriy etish;
- Kunning ikkinchi yarmida, shuningdek Agentlik tomonidan Hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan tashkilot va elchixonalar bilan **memorandum** imzolandi.

2-kun

Ikkinchi kun, 25-noyabr kuni Prezident ta'lim muassasalari agentligi va Halq ta'limi vazirligi tizimidagi o'qituvchilar uchun malakali xorijiy mutaxassislar ishtirokida **mahorat darslari va taqdimotlar** tashkil etildi.

Shu kuni forum ishtirokchilari uchun **yalpi majlis** bo'lib o'tib, unda, jumladan raqamlashgan davrda chet tillarni o'qitish ko'nikmalari va STEM fanlari joriy qilishning hozirgi muammolari va kelajakdagi strategiyalari kabi masalalar muhokama qilindi.

Shu kuni, shuningdek ishtiroklar uchun interaktiv o'yinlar tashkil etilib, sertifikatlar taqdim etildi. Kun oxirida konferensiyaning yopilish marosimiga bag'ishlangan konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Ma'lumot uchun, forum tadbirlari **o'zbek, ingliz va rus** tillarida olib borildi.

Forum dasturi ilova qilinmoqda.